

Musiqaning uchta asosiy janri



Musiqada **uchta asosiy janr** – **qo'shiq**, **raqs** va **marsh** mavjud bo'lib, ular musiqiy asarning bosh turlari hisoblanadi.



Qo'shiq vokal musiqa shakli bo'lib, matn va taronani birlashtiradi. Qo'shiq sho'x yoki g'amgin, shiddatli yoki sokin bo'lishi mumkin.



3

Assalom, do'stlar!

*Orif Abdubayev so'zi
Adham Abduraimov musiqasi*



Bu qo'shiq sizda qanday hissiyotlarni uyg'otdi?



Raqs – odamlarning musiqa sadolari ostidagi xatti-harakatlari. Har bir raqs o'z ritmiga ega va o'ziga xos harakatlardan tashkil topgan.



4

Shabandozlar
 ("Chavandozlar")
 qoraqalpoq
 xalq raqsi



- Raqs bop musiqani qayerda eshitish mumkin?
- Qanday raqslarni bilasiz?



Marsh – qadam tashlashda ijro etiladigan musiqa. U tantanali namoyishlardagi kabi safda bir tekis va tartibli yurishga yordam beradi.



5

**Yog'och askarchalar
 marshi**
 Pyotr Chaykovskiy



Tantanali namoyishlardagi kabi musiqa sadolari ostida qadam tashlang. Marshning o'ziga xosligi nimada?



Musiqaning ushbu turlari hissiyotlarimizni ifodalashga yordam berib, hayotimizga zavq va yorqinlik bag'ishlaydi.



Musiqaning uchta asosiy janri haqida gapirib bering. Berilgan musiqiy asarlarning qaysi biri sizga yoqdi? Nima uchun?

